

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA XALQ QO'SHIQLARIGA XOS XUSUSIYATLAR

Farmonova Mohinur Nuriddin qizi

Buxoro davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

10-1 UZA-21 guruh talabasi

E-mail: farmonovam69@gmail.com

Annotation: ushbu maqolada Iqbol Mirzo she'riyatida qo'shiq shaklida yozilgan asarlarning xalq og'zaki ijodidagi qo'shiq janri namunalari bilan mutanosibligi tahlil qilinadi. Qo'shiq janrining folkloridagi va Iqbol Mirzo ijodidagi namunalaridan parcha keltirib, solishtirilgan. Ulardagi o'xshash va farqli jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: folklor, yozma adabiyot, qo'shiq, janr, obraz, motiv, ritm, lirik qo'shiqlar, mavsumiy qo'shiqlar.

Hozirgi zamonda hayotning har jabhasida kechayotgan jadal rivojlanish insonlarda ma'naviy ozuqaga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Bunda eng asosiy yordamchi, albatta, adabiyotdir. Vatanimiz mustaqillikka erishgach milliy qadriyatlarimiz va o'zbek xalqiga xos an'analarning tiklanishi, xalq og'zaki ijodiga oid asarlarga ilmiy qiziqishning ortishi sababli o'zbek adabiyotshunosligi sohasida folklor ta'siri bo'lgan yozma adabiyot namunalariga xos xususiyatlarni tadqiq etishga qiziqish kuchaydi.

Folklor – bu bebaho milliy meros. U, o'z navbatida, milliy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma adabiyot va folklor munosabati benihoya keng bo'lib, folkloriga xos badiiy shakllardan, tasviriy vositalardan foydalanishning muhim tomonlari, folklorizmlarning yuzaga kelishi kabi masalalarni qamrab oladi. "folklordan foydalanish badiiy adabiyot taraqqiyotining turli davrlarida turlicha kechganki, ularning tadrijini bosqichma-bosqich o'rganish, ijodkorlarning folklorizmlardan foydalanishdagi uslub va mahoratini maxsus tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi¹".

Aytish mumkinki, folklor asarlaridan ta'sirlanish, undagi obraz, motivlardan foydalanish, folkloriga xos ohang va janrlarda ijod qilish Iqbol Mirzo she'rlarining xalqchillagini ta'minlabgina qolmay, balki uning badiiy qiymatini ham oshirgan. Shu

¹Laylo Sharipova. XX asrning 70–80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm. – Toshkent, 2011. – B.71.

bilan birga she’rlarida xalq maqollari, xalqona iboralar yordamida turli so‘z o‘yinlarini hosil qilish, folklorqa xos badiiy tasvir vositalaridan foydalanish shoirning o‘ziga xos uslubi va mahoratini namoyon qilgan.

Xalq qo‘shiqlari “o‘ta milliy, tarixiy badiiy-estetik hodisa¹” sanaladi. Ular millatning poetik xotirasi, bitmas-tuganmas badiiy boyligidir. Qo‘shiqlar juda qadim zamonlardan to hozirgacha yaratilib, kuylanib kelmoqda hamda xalq she’riyatining qadimiy, an’naviy, ommaviy turi hisoblanib, insonga doimiy hamroh, ma’naviy turmushda ko‘makchi, milliy marosimlarning betakrorligini ta’minlovchi badiiy hodisa sanaladi. Qo‘shiqning bir necha turlari bo‘lib, yozma adabiyotda, asosan, lirik qo‘shiqlarga o‘xshatma tarzda yozilgan she’rlarni uchratish mumkin. Masalan, Iqbol Mirzoning “Navro‘z qo‘srig‘i”, “Qo‘shiq” kabi she’rlarida bu she’r sarlavhasidan ham ayon bo‘ladi.

Bahorni bilmagan ellarni ko‘rdim,
Bir chechak kulmagan yerlarni ko‘rdim.
O‘zingni sog‘inib keladi navro‘z,
Kaftingga ko‘z suray, dehqonim yurtim,
O‘zingdan o‘rgulay, bog‘bonim yurtim² .

Ushbu she’r, avvalo, mavzu jihatidan mavsumiy qo‘shiqlar bilan mutanosiblik hosil qiladi. Bahor mavsumida kuylanadigan xalq qo‘shiqlaridagi singari ushbu qo‘shiqda ham *bahor, chechak, navro‘z, chuchmoma, uyg‘ongan tuproq, sumalak, qizlarning jamalaklari, kamalak, dehqonim va bog‘bonim* singari so‘z va birikmalar uchraydi. Birinchi bandning so‘nggi ikki misrasi qolgan bandlar oxirida aynan takrorlanishi naqarot vazifasini bajargan. *O‘zingdan o‘rgulay* birikmasi ham she’rga xalqona ruh bag‘ishlaydi. Hatto navro‘z ham sog‘inadigan yurt odamlarini shoir “*kafti qadog‘-u yuragi yumshoq el, Quyoshda qoraygan, yuragi oq el, Duoga qo‘l ochgan, tilagi oq el*” deya tavsiflaydi. Deyarli har tavsifda tazod san’atining qo‘llanilishi yozuvchining uslubiga xos tarzda ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi hamda xalqimiz dehqon-u bog‘bonlarining jonli tasvirini ko‘z oldimizga keltiriadi.

“Qo‘shiq” she’rida vatan mavzusi qalamga olingan bo‘lib, quyidagi misralar naqarot bo‘lib keladi:

*Agar jannat ko‘kda bo‘lsa, ostidadir O‘zbekiston,
Agar jannat yerda bo‘lsa, ustidadir O‘zbekiston!*³

¹Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 2010. – B.71.

²Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – B. 333.

³Iqbol Mirzo. Agar jannat ko‘kda bo‘lsa. – Toshkent: “Sharq”, 2010. – B.2.

She’rdagi “*O’zingga boq, keyin, mayli, nog’orangni qoq*” misrasi “Avval o’zingga boq, keyin nog’ora qoq” maqolining oddiy folklorizm sifatida ishlatilganligini ko’rsatadi.

*Yaltiragan hamma narsa emas tilla, hey,
Hayfdir senga Naqshbanddan qolgan salla, hey,
Ey, xudoni tanimagan chalamulla, hey,
Menga qanday yashamoqni o’rgatmagan sen!*¹

Iqbol Mirzoning boshqa bir qator she’rlari tarkibida xalq qo’shiqlariga o’xhatma tarzida bitilgan bandlar, misralar uchraydi. “Boychechak” she’rida esa xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan shunday nomlanuvchi mavsumiy qo’shiqdan “boychechagim boylandi” misrasini aynan keltiradi, har bir band shu jumla bilan yakunlanadi:

Ko‘zlarimning muzini
ko‘z bilan eritgan qiz,
Anduhlarim izini
bir kulib, aritgan qiz,
boychechagim boylandi...

...Guldek nozik qo‘lingga boychechagim boylandi.
Bir kulding-u qo‘ynimda boychechakka aylanding!
Boychechagim!²

Ushbu she’rni qo’shiq janri stilizatsiyasi sifatida tahlil qilish mumkin. Bahor, yoshlik, mehr-oqibat ramzi bo‘lmish boychechak guli she’r yakunida yor timsoli bo‘lib kelgan. Odatta, qiz bolani atirgul, lola kabi gullarga qiyoslaydilar. Bu she’rda esa lirik qahramon sevgan yorini qor qo‘ynidan nafis jussasini matonat bilan tiklab chiqadigan bahor elchisi boychechakka mengzaydi. Bu go‘zal va o‘ziga xos o’xhatishni faqat Iqbol Mirzo ijodida uchratish mumkin. Mazkur she’rda “*Qoshlaringga ergashib qaldirg‘ochlar qaytdilar*” misrasida yana bir ko‘klam elchisi bo‘lmish qaldirg‘ochga yorning qoshlari qiyos qilinadi. “*Ko‘nglimning kengligida gul undirgan gulpari*” jumlesi o‘zbek xalq ertaklaridan biri “Guliqahqah”ni yodga soladi. Bu ertak qahramoning kulgusidan gullar ochilishi haqida aytilgan.

“Ramazon” she’rida xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan qo’shiqdan olingan “*Ramazon aytib keldik eshigingizga, Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga*” misralari epigraf tarzida qo‘llangan. Ma’lumki, ramazon oyida bolalar bu qo’shiqni aytib, xonodon sohiblaridan turli xil hadyalar olishadi. Ushbbu odatt hozirgacha saqlanib kelayotgani beziz emasligini mazkur she’r yana bir bor ta’kidlagandek. “Yo Ramazon!”

¹ Iqbol Mirzo. Agar jannat ko‘kda bo‘lsa. – Toshkent: “Sharq”, 2010. – B.2.

² Iqbol Mirzo. Yurakning shakli. – Toshkent: “Kamalak”, 1993. – B.2

aytib chiqqan bolalar ko‘pincha farzand kutayotganlarning uyiga borib, ularning beshiklariga o‘g‘il farzand berishini, uning otining egarlari tilla bo‘lishini tilaganlar:

“...*Xudoyim bergan o‘g‘il mullo bo‘lsin,*

Otining egarlari tillo bo‘lsin!

...*Oq tanga, ko‘k tanga,*

Chiqarib bering, jon yanga!”

Bu ezgu niyatlar mukofoti sifatida ular hatto tilla tangalar bilan siylangani haqida eshitganmiz. Shoir ham ayni shu an'anaga e'tibor qaratib:

“Shu kecha kelinlarning ko‘ziga qara, dunyo,

Shu kecha kuyovlarning ko‘ngliga boqqil, olam!¹”

deya nido qiladi. Tegirmondan “*Un ko‘tarib qaytayotgan Yoqub polvon, Simyog‘ochga suyanib yig‘laganin kim bilar?..*” misralari orqali ushbu she’rdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – yaxshi tilak nima ekanligini yaqqol namoyon qiladi. She’r quyidagicha yakunlanadi:

Do‘st, tirnoqqa zor bo‘lma, ko‘rmagil tirnoqcha g‘am,

Har yili ko‘ztumorlar osilsin beshigingga.

Mening ham yelkamdagи yukimni olsin bolam,

Ramazon aytib borsin bir kuni eshigingga².

Shoir do‘st uyidagi beshikka ko‘ztumorlar osilishini tilaydi, bu bilan xalq odatlariga ham ishora qiladi. O‘ziga ham shu yaxshilikni istab, farzandi ulg‘ayib, yelkasidagi yukini olishini niyat qiladi. O‘zbeklarda “Qatorda noring bo‘lsa, yueling yerda qolmaydi”, degan gap bejizga aytilmagan. Banddagi *tirnoqqa zor* iborasining *tirnoqcha g‘am* birikmasi bilan yonma-yon keltirilishi orqali nafaqat go‘zal ifoda yaratilgan, balki ma’noni yana-da kuchaytirgan. Bu Iqbol Mirzo ijodiga xos uslubdir. Mavzuga mos tarzda yana bir she’rida “*Men – o‘sha, sarpoychan, “Ramazon” aytib, oyni g‘ildiratib o‘sigan bolangman*” misrasini keltiradi.

Qo‘shiq nihoyatda qadimiy lirkil jannr bo‘lib, yozma adabiyotda ilk dastlab M. Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk asarida uchraydi. Asosan, xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lsa-da, yozma adabiyotda ham ushbu jannr namunalariga ko‘plab duch kelish mumkin. Folklor namunasi bo‘lgan qo‘shiqlar mavzu doirasi keng qamrovli bo‘lsa, yozma adabiyotda ko‘proq lirkil qo‘shiqlar yozilganini uchratamiz. Xususan, I.Mirzo ijodida ham marosim yoki mehnat qo‘shiqlari emas, lirkil qo‘shiqlar ko‘proq uchraydi. Ular vatan, muhabbat mavzularida bo‘lishi yoki bayram munosabati bilan ko‘tarinki kayfiyatni ifodalashi mumkin.

¹ Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – B.189.

² Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – B.189.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Laylo Sharipova. XX asrning 70 –80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent, 2011. – B.71.
2. Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 2010. – B.71.
3. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – B. 333.
4. Iqbol Mirzo. Agar jannat ko‘kda bo‘lsa. – Toshkent: “Sharq”, 2010. – B.2.
5. Iqbol Mirzo. Yurakning shakli. – Toshkent: “Kamalak”, 1993. – B.2
6. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – B.189.